

O'ZBEKISTON AHOLISINI SIFATLI BALIQ MAHSULOTLARI BILAN TA'MINLASH VA SHU BO'YICHA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHATLAR

Navoiy davlat universiteti talabasi

Abdulazizova Nozima Sanjarbek qizi

Biologiya fanlari falsafa doktori **R.B.Hakimova**

abdulazizovanozima74@gmail.com

ANNOTATSIYA

O'zbekiston hududidagi baliqlarni yetishtirish texnologiyasi va ahamiyati,baliqchilik xo'jaliklarini yanada rivojlantirish bo'yicha davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar o'rganiladi. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi(Stat.uz)ning yillik statistik to'plam materialidan foydalanilgan holda respublikamiz va Navoiy viloyati suv havzalaridan ovlanadigan baliqlar hajmining dinamikasi tahlil etilgan. Olingen tahlil natijasi asosida baliqchilikni barqaror rivojlantirish borasida takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: D 371Intensi, baliq moyi, baliq go'shti, Navoiy viloyati baliqchilik xo'jaligi, 371Intensive usul, suniy suv havzalari, irigatsiya, invaziv baliqlardan Kumushtovon baliq (*Carassius gibelio*), Oqcha (*Abramis brama*), Oq sla (*Sander lucioperca*)

Baliq inson organizmi uchun foydali elementlarga bo'lган ehtiyoji uchun zarur bo'lган mahsulotlardan biri hisoblanadi.Baliq bir qancha foydali xususiyatlarga ega.Baliq inson organizmini tozalovchi, suyak va tishlarni mustahkamlovchi shifobaxsh taom sifatida qadimdan sevib iste'mol qilinadi. Ayniqsa, tez hazm bo'lishi va parhezbopligi baliqning qiymatini yanada oshiradi. Baliq go'shti tarkibida juda ko'p vitamin va mikroelementlar saqlanishi tufayli biologik qiymati ham mol va qo'y

go'shtidan yuqori turadi. Baliq go'shtining 100 grammida inson salomatligi uchun kerak bo'ladigan bir kunlik — 0,2 milligramm yod saqlanadi. Shuningdek, baliqni iste'mol qilish bir qancha kasalliklarga koni foyda hisoblanadi: yurak kasalliklari xavfini kamaytiradi, ko'rish qobiliyatini yaxshilaydi, uyquni yaxshilaydi, revmotoid artritni yengillashtiradi, xolesterin darajasini kamaytiradi, modda almashinuvini tezlashtiradi, qon bosimini pasaytiradi, nevrologik kasalliklarda, erkaklarda jinsiy quvvatni oshiradi, jigar uchun foydali hisoblanadi. Baliqni bolalarga haftada 2 marta tayyorlab berilsa bolalarda ayrim moddalarga bo'lган ehtiyojini qoplaydi va ko'rish qibiliyatini yaxshilaydi.

Baliqning go'shtidan tashqari uning moyi ham inson salomatligi uchun foydali hisoblanadi. Baliq moyidagi D vitamini organizmga kalsiy va fosforning o'zlashishini faollashtiradi. D vitaminisiz kalsiyga boy mahsulotlar ham foydasiz bo'ladi. Ayniqsa, qish mavsumida. Chunki D vitamini quyosh nuri ta'sirida organizmga sintezlashadi. Qishda tabiiyki quyoshdan D vitamini kam sintezlanadi, shu sababli ko'proq baliq iste'mol qilish maqsadga muofiqdir. Bundan tashqari D vitamini asab sistemasini tinchlantiradi va tutqanoq tutib qolishidan asraydi. Baliq shunday foydali xususiyatlarga ega ekanligi uchun ham, unga bo'lган ehtiyoj ham oshib bormoqda. Bu ehtiyojlarni qoplay olish uchun esa baliqchilik sohasini yanada rivojlantirish talab etiladi. Bu borada mamlakatimizda qator islohatlar olib borilmoqda.

Prezident qaroriga muvofiq 2024-yil 1-yanvardan boshlab "Har bir oila – tadbirkor" dasturi doirasida baliq yetishtirish loyihibalarini amalga oshirish uchun aholi va tadbirkorlarga 50 million so'mgacha garovsiz kreditlar ajratilishi belgilab berildi. Hujjatga ko'ra, 2024-yilda baliq ovlash hajmini 900 ming tonnaga yetkazish rejalashtirilgan. Aholi tomonidan baliq yetishtirish bilan shug'ullanuvchi xonardonlar soni esa 9 ming taga yetkazilib, ular tomonidan intensiv usulda 10 ming 900 tonnagacha baliq yetishtirish rejalashtirilgan.

Jumladan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning „Baliqchilikni yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar“ to'g'risidagi PQ-4005-sonli 6.11.2018 qaroriga muvofiq tarzda keng ko'lamlı ishlar olib borilmoqda. Qarorda

ta'kidlanishicha, hozirda mamlakatda 3 mingdan ortiq baliqchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklar faoliyat yuritmoqda.

Shu bilan birga, sohada bir qator muammolar mavjudligini inobatga olib, baliqchilik sohasini rivojlantirishda baliqchilikni ilmiy asoslangan tashkil etish, inkubatsiya sexlarini va baliq boqish joylarini qurish hamda mavjud suv havzalarini modernizatsiya qilish va kengaytirish ustuvor vazifa qilib belgilandi.


O'zbekistonning baliqchilik tarmog'ida so'nggi besh yilda umumiyligi qiymati 2,2 trln so'mlik 1016 ta loyiha amalga oshirilgan bo'lib, bu joriy yilda baliq yetishtirish hajmini 6 barobarga oshirish va 400 ming tonnaga yetkazish imkonini berdi. Baliq iste'moli 2016-yilga nisbatan 5,7 barobar oshdi. Shuningdek, yaqin yillarda baliq yetishtirishni 600 ming tonnaga yetkazish vazifasi qo'yildi.

Bundan tashqari, Harakatlar strategiyasini «Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash» yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturini bajarilishida 2021-yil 20-martgacha “Ahholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida go'sht, sut, tuxum va baliq mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini oshirish” tadbiri rejalashtirilgan. Buni amalga oshirish uchun 6 trln.so'm mablag' ajratilgan. Chora-tadbirlar dasturidan kutilayotgan natija esa, 2021 yilda chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirishga qaratilgan 1500 ta yangi loyihalarni ishga tushirish nazarda tutiladi. Baliq go'shti yuqori biologik qiymatga ega bo'lib, parhez xususiyati afzalliklariga ega bo'lganligi uchun insonlar hayotida yaxshi oziqa hisoblanadi. Shuning uchun baliq mahsulotlarini inson iste'mol qilishi uchun tibbiy normalar belgilangan. Bu tibbiy normalar O'zbekiston sharoitida har xil yoshidan, holatidan kelib chiqib 9 kg dan 25 kg gacha qilib belgilangan. O'rtacha hozirgi kunda tibbiy normasi O'zbekistonda 11 kg hisoblanadi. Ushbu tibbiy normani ta'minlash maqsadida Respublikamizda oxirgi yillarda baliqchilikni rivojlantirish uchun bir qancha qarorlar qabul qilingan bo'lib, bu borada O'zbekistonda baliq mahsulotlari ishlab chiqarishni keskin oshishiga sabab bo'ldi.

Mamlakatimizga baliqning 4 ta yangi turlari – osyotr, afrika laqqasi, lasos va tilyapiya keltirildi. Ular bugungi kunda O‘zbekiston iqlimiga moslashtirilgan bo‘lib, juda yaxshi natijalar bermoqda.


Quyidagi ilovada Statistika agentligining ma’lumotlariga asoslangan holda Navoiy viloyati Baliqchilik xo’jaligining 2024-yildagi o’sish sur’ati keltirilgan. 1-ilova

Qishloq,o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot(xizmat)lar hajmining o'sish sur'ati



Ushbu statistikadan ko’rinib turibdiki, baliqchilik xo’jaligining o’sish suratlari boshqa xo’jaliklarga nisbatan past.Bu esa shuni anglatadiki baliqchilik bo'yicha keng ko'lamli islohatlar olib borishga ehtiyoj bor.Buning uchun go'shti va yog'i foydali bo'lgan baliqlarni iqlimlashtirish,suv omborlaridagi va suniy suv havzalaridagi baliqlarning sonini insonlarning iste'mol ehtiyojlariga mos ravishda oshirish kerak bo'ladi.

Quyidagi ilovada esa Navoiy viloyatida ovlanadigan baliq hajmi berilgan.(2-ilova)



Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanida baliq ovlash hajmi eng yuqori bosqichda 1208 tonnani tashkil qilganligini ko'rish mumkin.

Biz Qiziltepa tumanida "To`dako`l" suv omborida tadqiqot olib borganimizda O`zbekiston ixtiofaunasini rivojlantirish maqsadida bir necha yillar oldin chetdan invaziv baliqlardan **Kumushtovon baliq** (*Carassius gibelio*), **Oqcha** (*Abramis brama*), **Oq sla** (*Sander lucioperca*) baliq turlari ko`chirib kelingan va ushbu baliqlar bugungi kunda bizning respublikamizning ekologik sharoitiga moslashgan holda, To`dako`l suv omborida o`z populyatsiyalarini hosil qilgan va muhim ovlanish ahamiyatiga ega bo`lgan baliq turlariga aylagan. O`rganilgan tadqiqot natijalari shuni ko`rsatadi, ushbu baliqlar bizning hududimizda erkin chatishib, tez ko`paya oladi, serpushtlilik miqdori yuqori baliq hisoblanib, go'shti mazzali va aholimizning sotib olishi uchun narxi juda qimmat baho emas, shu sababli aholimiz o`z sog`liklarini saqlash maqsadida foydalanish imkoniyati yuqori ekanligi aniqlandi.

O`zbekiston respublikamizdagи barcha suvlar asosan qishloq xojaligining irigatsiyasi uchun mo`ljallangan bo`lsada bugungi kunda aholining bandligini ta`minlash va aholiga toza tabiiy oziq-ovqat mahsulotlarni yetkazib berish maqsadida

suvdan ikki tomonlama foydalanib baliqchilik xo`jaliklarini tashkil etish va baliqchilikri rivojlantirish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Respublikamizning aholisini baliq go`shti va baliq masulotlari bilan ta`minlash bugungi kunda yetarli darajada emasligi barchamizga ma`lum, shu sababli ham aholi o`rtasida targ`ibot ishlarini tashkil qilish va baliqchilik xo`jaliklarini ko`paytirish lozim. Baliqchilkda 376ntensive va ekstensiv baliq yetishtirish uchun ko`rsatmalar, baliqchilik xo`jaliklarini tashkil etish va boshqarish uchun tavsiyanomalar ixtiologlar tomonidan ishlab chiqilgan.Ishlab chiqilgan qo`llanmalardan foydalangan holda respublikamizning turli hududlarida baliqchilik xo`jaliklarini ish faoliyatini yo`lga qo`yilsa maqsadga muvofiq bo`ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, baliqlarning inson hayotidagi ahamiyati juda ham yuqori, shunday ekan baliqlarni yetishtirishga alohida ahamiyat berish kerak. Jumladan o`zaro erkin chatishib nasl beradigan, tez ko`payadigan, serpushtlik miqdori yuqori bo`lgan baliqlarni va go`shti mazali bo`lgan baliq turlarini iqlimlashtirish ishlari mamlakatimizning qator viloyatlarida amalga oshirilmoqda. Bu borada Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanidagi baliq hajmi boshqa viloyatlarga qaraganda ancha yuqori bu ham boshqa hududlarga nisbatn baliq yetishtirish yuqori ekanligini anglatadi.

Agar baliq yetishtirishni yana ham yuqori darajada amalga oshirilsa nafaqat ahlolini sifatli va mazali baliq go`shti bilan ta`minlaymiz balki, aholining bandligini ham ta`minlagan bo`lamiz.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

- 1.A.U.Mamajonov, M.Sh.Nazarov, R.B.Kurbanov, U.O.Usmonxo`djayev, M.X.Mamatqulov, Z.J.Obidov „O`zbekiston Respublikasi mintaqalarida hovuz baliqchilik xo`jaligini intensive usulda yuritish asoslari” Toshkent-2020-yil.
- 2.A.R.Kurbanov „O`zbekiston sharoitida istiqbolli baliq turlarini yetishtirish” Toshkent-2021.